"GLOBAL HEALTH AND MODERN MEDICINE: INNOVATIONS AND PERSPECTIVES"
International Conference titled

Website:https://worldsiencepub.com/index.php/isngcs September edition,2026

UDK 618.177:618.145-018:616-091

ENDOMETRIAL OMILGA BOG'LIQ BEPUSHTLIKDA ENDOMETRIY ASPIRATSION MATERIALINING MORFOLOGIK VA GISTOKIMYOVIY XUSUSIYATLARI

Xodjayeva Dilnoza Bobirovna
Qo'qon Universiteti Andijon Filiali
Assistent o'qituvchisi
Tel: +998 91 176 00-72
Email: doc.hodjaeva@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda endometrial omilga bog'liq bepushtlikda gematoksilin-eozin, Alsian ko'ki va Van-Gizon bo'yoqlarining diagnostik imkoniyatlari tahlil qilindi. Maqsad ushbu usullarning bir-birini to'ldiruvchi xususiyatlarini asoslashdan iborat. Muallifning dissertatsion materiallari asosida tavsifiy-qiyosiy tahlil o'tkazildi. Natijada bo'yoqlarning hujayraviy arxitektonika, mukopolisaxaridlar va kollagen holatini baholashdagi alohida ahamiyati aniqlandi hamda uch bosqichli gistokimyoviy baholash ketma-ketligi taklif etildi.

Kalit so'zlar: gematoksillin-eozin, Van-Gizon, stromal fibroz, mukopolisaxarid, kollagen tolalari, periglandulyar fibroz, surunkali endometrit, endometrial omil

Tadqiqot maqsadi. Gematoksillin-eozin, Alsian ko'ki va Van-Gizon bo'yoqlarining har birini endometrial omilga bog'liq bepushtlikni tashxislashdagi alohida diagnostik funksiyasini aniqlashtirish va ularni uch bosqichli gistokimyoviy baholash ketma-ketligiga birlashtirish.

Tadqiqot vazifalari. Avvalo gematoksillin-eozin bo'yog'ining bezli va hujayraviy arxitektonikani ko'rsatishdagi imkoniyatlari tahlil qilindi. Shundan so'ng Alsian ko'ki bo'yog'i orqali aniqlangan mukopolisaxarid almashinuvi buzilishlari o'rganildi. Keyingi bosqichda Van-Gizon bo'yog'i yordamida kollagen tolalari va fibroz darajasi baholandi. Yakuniy vazifa sifatida uch usulning natijalari bir-biriga qanday mos kelishi tahlil qilinib, ketma-ket diagnostik algoritm shakllantirildi.

Material va metodlar. Tezis nazorat va bepushtlik guruhlaridan olingan endometriy aspiratsion materialining gematoksilin-eozin, Alsian ko'ki va Van-Gizon bo'yoqlari natijalariga asoslangan tavsifiy-qiyosiy tahlilga ega. Gematoksilin-eozin birlamchi baholashda bezlar shakli va joylashuvi, epiteliy balandligi hamda stromadagi hujayraviy infiltratni ko'rsatdi. Bepushtlik guruhida bezlarning notekis konfiguratsiyasi va diffuz mononuklear infiltratsiya aniqlangan bo'lsa-da, infiltrat tarkibi va uning to'qimaga ta'sirini to'liq baholash imkonini bermadi. Alsian ko'ki stromaning ekstrasellyulyar matriks holatini baholadi. Nazorat guruhida kislotali mukopolisaxaridlar 27,2–38,3% oralig'ida bir tekis taqsimlangan bo'lsa, bepushtlik guruhida 40,1–54,5% gacha oshib, notekis joylashdi. Ayrim bezlarda sekret kamayishi, boshqalarida esa ortiqcha to'planishi kuzatildi. Bu holat sekretor-metabolik buzilishlarni aniqlash imkonini berdi. Van-Gizon bo'yog'ida nazorat guruhida stromaning to'r-katakli kollagen tarmog'i saqlangan, bepushtlik guruhida esa kollagen tolalari ko'payishi, periglandulyar va perivaskulyar fibroz, ayrim og'ir holatlarda diffuz fibrotik qayta qurilish aniqlandi. Bu jarayonning strukturaviy bosqichga o'tganini ko'rsatdi.

© 2026lobal Health and Modern Medicine: Innovations and Perspectives. All Rights Reserved.

Uch bo‘yoq natijalari birgalikda patologik jarayonning ketma-ket bosqichlarini aks ettirdi: gematoksilin-eozin - hujayraviy o‘zgarishlarni, Alsian ko‘ki - metabolik-sekretor buzilishlarni, Van-Gizon esa fibrotik strukturaviy o‘zgarishlarni ko‘rsatdi. Shu asosda uch bosqichli gistokimyoviy baholash ketma-ketligi taklif qilindi, yani gematoksilin-eozindan keyin Alsian ko‘ki va bundan keyin esa Van-Gizon. Ushbu yondashuv bitta aspiratsion namunadagi turli kesmalardan foydalanish imkonini beradi va qo‘shimcha biopsiya materialini talab qilmaydi.

Ilmiy yangilik. Uch klassik gistokimyoviy bo‘yoqning har biri patologik jarayonning alohida, ketma-ket bosqichini (hujayraviy, metabolik, strukturaviy) aks ettirishi birinchi marta yagona diagnostik zanjir sifatida tizimlashtirildi, faqat gematoksillin-eozinga tayanishning cheklovlari raqamli ma’lumotlar asosida ko‘rsatildi, uch bosqichli gistokimyoviy baholash ketma-ketligi konsepsiyasi sifatida taklif etildi.

Natijalar. Har uchala bo‘yoq bepushtlik guruhida nazoratdan sifat jihatidan aniq farqlanuvchi manzarani berdi: gematoksillin-eozinda hujayraviy infiltratsiya, Alsian ko‘kida mukopolisaxarid taqsimotining buzilishi, Van-Gizonda esa kollagen ko‘payishi va fibroz aniqlandi, bular bir-birini takrorlamaydi, balki bir-birini to‘ldiradi.

Muhokama. Natijalar CD-138 kabi immunogistokimyoviy usullarning surunkali endometritni aniqlashdagi ustunligi haqidagi xalqaro ma’lumotlarga qarama-qarshi kelmaydi, aksincha, klassik gistokimyoviy bo‘yoqlarni immunogistokimyodan oldingi, arzon va keng foydalanish mumkin bo‘lgan skrining bosqichi sifatida to‘ldiradi. Tadqiqotning cheklovi shundaki, taklif etilgan uch bosqichli ketma-ketlik hali statistik jihatdan validatsiya qilinmagan va uning har bir bosqichida aniq son mezonlari standartlashtirilishi lozim.

Xulosa o‘rnida yozganda, Gematoksillin-eozin, Alsian ko‘ki va Van-Gizon bo‘yoqlari endometrial omilga bog‘liq bepushtlik patogenezining uch ketma-ket bosqichini - hujayraviy, metabolik va strukturaviy - alohida ko‘rsatadi. Faqat bitta bo‘yoqqa tayanish jarayonning to‘liq chuqurligini baholashga imkon bermaydi, shu sababli taklif etilgan uch bosqichli ketma-ketlik amaliy patologik anatomiya laboratoriyalarida qo‘shimcha resurs talab qilmaydigan, ammo diagnostik to‘liqlikni oshiruvchi vosita sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kitaya K., Takeuchi T., Mizuta S., Matsubayashi H., Ishikawa T. Endometritis: new time, new concepts // Fertility and Sterility. 2018. Vol. 110, № 3. P. 344–350.
2. Bayer-Garner I. B., Nickell J. A., Korourian S. Routine syndecan-1 immunohistochemistry aids in the diagnosis of chronic endometritis // Archives of Pathology and Laboratory Medicine. 2004. Vol. 128, № 9. P. 1000–1003.
3. Kitaya K., Takeuchi T., Mizuta S., Matsubayashi H., Ishikawa T. Endometritis: new time, new concepts // Fertility and Sterility. 2018. Vol. 110, № 3. P. 344–350.

© 2026lobal Health and Modern Medicine: Innovations and Perspectives. All Rights Reserved.